



SAID AHMAD SERQIRRA IJODKOR

Ziyadullayeva Fotima Fazliddinovna

*Samarqand davlat chet tillar instituti O'zbek tili
jurnalistika va kompyuter lingvistikasi kafedrası dotsent v.b.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek yozuvchisi Said Ahmad ijodi haqida ma'lumot berilgan. Ijodkor asarlarining mavzu doirasi, obrazlar olami tahlil qilingan. Adibning hajviy asarlarining o'ziga xos jihatlari haqida munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: yumor, satira, badiiy olam, obrazlilik, hikoya, milliy ruh, qahramon.

Yurtimizda istiqloq qo'lga kiritilganda sevimli adibimiz 71 yoshda edi. Said Ahmad qatag'on davrining ikkinchi to'ldiniga duchor bo'lgan, qamoq azoblarini tortgan ijodkor edi. Xalqimiz bu haqda yaxshi biladi, negaki ko'p yozilgan. U "aksilsho'roviy millatchilar guruhi a'zosi, zararli g'oyalar targ'ibotchisi" sifatida 25 yilga hukm qilinadi, Qozog'istonning Qarag'anda viloyati Jezqazg'an lagerida bo'ladi. Uning "Qorako'z majnun" hikoyalar to'plami bu haqdagi achchiq haqiqatni ro'y-rost ifodalaydi.

Said Ahmad dastlab "Mushtum" jurnalida, keyinchalik O'zbekiston teleradiokompaniyasida, so'ng "Sharq yulduzi" jurnalida ishlagan edi.

Said Ahmad hikoyalarida tasvirlashi lozim bo'lgan har bir voqeadan falsafiy umumlashma chiqaradi, voqealarni ta'sirchanlik bilan ifodalaydi, badiiy tasvirning xilma-xilligiga erishishga intiladi. "Cho'l burguti", "O'rik domla", "Lochin", "Odam va bo'ri", "Bo'ston", "To'yboshi" kabi qator asarlari adib ijodida ham, o'zbek nasrida ham yangilik bo'ldi.

Said Ahmad Abdulla Qahhordan keyingi o'zbek adabiyotida mohir hikoyanavis, o'tkir hajvchi, xalqimiz sevib o'qiydigan ko'plab asarlar muallifidir. Yozuvchi ijodining o'ziga xosligini bu kulgilarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Kulgi adibning bosh quroli hisoblanadi. Said Ahmad yaratgan obrazlarning betakrorligi kulgi orqali yana-da jozibali, yorqinroq ko'rinadi", deb yozgandi O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov. Said Ahmad shunday degandi: "Avvalo, hajvchi xalq tilini, shu tilning butun ranglariyu ohanglarini boshqalardan ko'ra nozik his qiladigan va uni juda chiroyli qilib, odamlar chehrasiga tabassum purkaydigan qilib aytib bera oladigan mahorat egasi bo'lmog'i kerak. Kulish oson, kuldurish qiyin. Kulgisiz hayot g'oyatda zerikarli bo'lishini, kulgining kundalik hayotimizda juda muhim rol o'ynashini hammamiz bilamizku". Said Ahmad ijodining bu ko'rkam tomonlari, ayniqsa, uning "Kelinlar qo'zg'oloni" va "Kuyov" komediyalarida namoyon bo'ldi.



“Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasi yarim dunyoni aylanib chiqqani haqiqat.

Said Ahmadning noyob iste’dodi - tabiatan yumorga moyilligi ijodiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu uning nafaqat hajviy asarlarida, balki jiddiy asarlarida ham yaqqol ko‘rinadi, shuning uchun adib ijodidagi kulgi uning tabiatidan kelib chiqadigan, qon-qoniga singib ketgan xususiyat, qolaversa, uning fikrlashidagi, dunyokarashidagi o‘ziga xoslikdan tug‘ilgan.

Adib hajviyotiga ustozlarining ta’siri katta bo‘ldi, shuning uchun Said Ahmad oziqlangan chashmalardan yana biri uning ustozlaridir. Adib G‘.G‘ulomning xalqchil yumori, A.Qahhor haqiqiy satirasining eng yaxshi an‘analari ruhida tarbiyalandi, ular kulgisidan ilhomlanish uning o‘ziga xos takrorlanmas kulgi san’ati yaratishiga olib keldi.

Said Ahmad hajvning hayotdagi o‘rni va xizmatini ham to‘g‘ri ko‘rsatadi: “Hajv hayotimizni bezaydigan, ruhlarimizni yengillatadigan va shu bilan birga hayotimizdagi illatlarni turtkilab, yo‘ldan chiqqanlarni ko‘pchilik orasida po‘stagini qoqadigan g‘oyaviy qurol hamdir” . Kulgisiz hajviy asarlarni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Biroq, bu asarlarni tekshiruvchi kulgichilik nazariyasi haqida barmoq bilan sanarli ilmiy tadqiqotlar qilingan. Adabiyotshunos U.Normatov bilan suhbatda Said Ahmad shunday deydi: “Hajvni biz yaratamiz, ammo hajv haqida, uning adabiy tur sifatida hozirgi zamon adabiyotida tutgan o‘rni qay darajada mahorat bilan yozilgan, yozilmagani to‘g‘risida sizlar gapirishingiz kerak”. Darhaqiqat, hajviyotdagi janrlar, ularning tarixi, rivojlanishi, tabiati borasida juda ko‘p ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zarur. Ulug‘ satiriklar va yumoristlar komizmning obyektiv hayotiy ildizlari mavjudligini qayta-qayta ta’kidlaganlar⁴⁹.

Said Ahmadning ko‘p hikoyalarini, xususan, “Cho‘l shamollari”, “Cho‘l oqshomlari” turkumiga kirgan hikoyalarini shu janrning yetuk namunalari deyish mumkin. Adib bu hikoyalarida jonli, tiniq obrazlar yaratib, voqelikdagi yangiliklarni, oddiy kishilar hayotidagi o‘ssish-o‘zgarishlarni, ular ong-tushunchasidagi ibratli jihatlarni umumlashtirib ustalik bilan tasvirlab berdi. Said Ahmad o‘zining “Cho‘l hikoyalari”ni “cho‘llarda boshlangan yangi hayot va yangi odamlar qissasi” deb atashi ham bejiz emas, albatta⁵⁰.

Istiqlol quyoshidan yuragi nurlangan adib quvnoq, jo‘shqin hajviyalar, dilbar lirik hikoyalar yaratdi. “Xandon pista”, “Bir o‘pichning bahosi” va “Yo‘qotganlarim va topganlarim” kabi kitoblari, yangi “Saylanma” asarlari chop etildi. Ayniqsa “Yo‘qotganlarim va topganlarim” esse-xotiralar kitobi o‘zbek adabiyoti tarixida noyob asar bo‘ldi. “Yo‘qotganlarim va topganlarim”ni varaqlasangiz, fikrimizga shubhasiz qo‘shilasiz. Unda 16 nafar

⁴⁹ Said Ahmad. Saylanma. Uch jildlik. Uchinchi jild. – Toshkent, 1982. – 558-bet.

⁵⁰ Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent, 2005. – 311-b.



yozuvchi va shoirning hayoti haqida g'oyat teran va tesha tegmagan xotiralar berilgan.

Darhaqiqat, Said Ahmad ijodida insoniylik, mehr-oqibat, sadoqat kabi abadiy qadriyatlar har qanday davrda ustuvor ekanligi ta'kidlanadi. Qahramonlar turli sinovlarga duch kelgan bo'lsalar-da, ularning insoniy fazilatlari asar g'oyasining asosiy tayanchiga aylanadi. Shu orqali yozuvchi davr o'tkinchi, ammo insoniylik qadriyatlari abadiy ekanini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Said Ahmad. Tanlangan asarlar II jild. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2000.
2. Said Ahmad. Qorako‘z Majnun. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2013.
3. Normatov U. Said Ahmad [Adabiy portret], Toshkent, “O‘qituvchi”1971.
4. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent, 2005.
5. Qayumov L. Zamondoshlar. – Toshkent, 1985.